



IJTIMOIIY-GUMANITAR SOHADA ILMIIY-INNOVATION TADQIQOTLAR

ILMIY METODIK JURNALI

ISSN 3060-5059



VOL.3 № 5

2026

ZAMONAVIY G‘ARBIY YEVROPA TADQIQOTLARIDA “MILLAT” TUSHUNCHASINI ANGLASHDA AYRIM METODOLOGIK YONDASHUVLAR

Xayitov Zafar Uzoqovich

Navoiy davlat universiteti, professor, dotsent

Annotatsiya

Mazkur maqolada zamonaviy G‘arbiy Yevropa ilmiy tafakkurida “millat” tushunchasining mohiyati, uning nazariy talqinlari hamda metodologik yondashuvlari kompleks tarzda tahlil qilinadi. Xususan, konstruktivistik va instrumentalistik yondashuvlar doirasida millatning “tasavvuriy hamjamiyat” sifatida talqin etilishi, uning shakllanishida ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy va madaniy omillarning o‘rni yoritiladi. Shuningdek, P. Berger, T. Lukman, F. Bart, E. Gellner va B. Anderson kabi olimlarning nazariy qarashlari asosida millat fenomenining zamonaviy talqinlari ochib beriladi. Tadqiqotda millatning tarixiy shakllanish jarayoni, sanoatlashuv va modernizatsiya bilan bog‘liqligi hamda etnik identlikning sub‘ektiv va konstruktiv xarakteri asoslab beriladi. Maqolada ijtimoiy-gumanitar fanlar kesimida millat tushunchasining evolyutsiyasi va uning zamonaviy ilmiy diskursdagi o‘rni aniqlashtiriladi.

Kalit so‘zlar: millat, tasavvurdagi hamjamiyat, konstruktivizm, etnik guruhlar, ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlar, an‘anaviy jamiyat, industrial jamiyat.

НЕКОТОРЫЕ МЕТОДОЛОГИЧЕСКИЕ ПОДХОДЫ К ПОНИМАНИЮ ПОНЯТИЯ «НАЦИЯ» В СОВРЕМЕННЫХ ЗАПАДНОЕВРОПЕЙСКИХ ИССЛЕДОВАНИЯХ

Хаитов Зафар Узокович

Навоийский государственный университет, профессор, доцент

Аннотация

В данной статье проводится комплексный анализ понятия «нация» в современном западноевропейском научном дискурсе, раскрываются его сущность, основные теоретические интерпретации и методологические подходы. Особое внимание уделяется конструктивистскому и инструменталистскому направлениям, в рамках которых нация рассматривается как «воображаемое сообщество». Анализируются социально-экономические, политические и культурные факторы, влияющие на формирование национальной идентичности. На основе трудов П. Бергера, Т. Лукмана, Ф. Барта, Э. Геллнера и Б. Андерсона раскрываются современные подходы к пониманию феномена нации. В статье обосновывается связь формирования нации с процессами индустриализации и модернизации, а также подчеркивается субъективный и конструктивный характер этнической идентичности. Определяется место концепта «нация» в современном гуманитарном знании и его эволюция в научном дискурсе.

Ключевые слова : нация, воображаемое сообщество, конструктивизм, этнические группы, социально-экономические процессы, традиционное общество, индустриальное общество.

SOME METHODOLOGICAL APPROACHES TO UNDERSTANDING THE CONCEPT OF "NATION" IN CONTEMPORARY WESTERN EUROPEAN STUDIES

Xayitov Zafar Uzoqovich

Navoi State University, Professor, Associate Professor

Abstract

This article provides a comprehensive analysis of the concept of “nation” in contemporary Western European scholarship, focusing on its essence, theoretical interpretations, and methodological approaches. Particular attention is given to constructivist and instrumentalist perspectives, within which the nation is interpreted as an “imagined community.” The study examines the role of socio-economic, political, and cultural factors in the formation of national identity. Drawing on the works of P. Berger, T. Luckmann, F. Barth, E. Gellner, and B. Anderson, the article explores modern theoretical approaches to understanding the phenomenon of the nation. It also substantiates the relationship between nation formation and processes of industrialization and modernization, emphasizing the subjective and constructed nature of ethnic identity. Furthermore, the paper clarifies the evolution of the concept of nation within contemporary academic discourse and its significance in the social sciences and humanities.

Keywords: nation, imagined communities, constructivism, ethnic groups, socio-economic processes, traditional society, industrial society

Bugungi kunda G'arbiy Yevropa olimlari o'rtasida "millat"ga ilmiy, siyosiy va mafkuraviy asosdagi "tasavvuriy birlashma", "tasavvuriy hamjamiyat" sifatida qarash ommalashdi. Ularda etnik (milliy) o'zlikni anglash madaniy belgilar asosidan ko'ra shaxsiy-kollektiv maqsad va strategiyaga asoslanganligi hisobga olinadi. Bu yondashuv ikkita alohida yo'nalishga ajratiladi: konstruktivistik va instrumentalistik. Ushbu yo'nalishlarda millat (etnos)ning tarixiy shakllanganligidan ko'ra, etnomilliy tuzilishga nisbatan dastlabki va yetakchi reallik sifatida yondashiladi. Mazkur maqolada "millat" tushunchasining konstruktivistik talqinini yoritishga harakat qilamiz.

Konstruktivizm yo'nalishi uchun hududning umumiyliigi, madaniyatning birligi, "ushbu birlik (jamo) a'zolarining tarixiy taqdiri umumiyliigi haqidagi tasavvur yoki rivoyat (mif, afsona)" asosiy hisoblanadi. Konstruktivizmining mustaqil ilmiy yo'nalish sifatida shakllanishi Peter Berger va Thomas Luckmann nomi bilan bog'liq. Ularning fikricha, jamiyat ob'ektiv reallik sifatida insonlar faoliyatining mahsulidir, shu ma'noda u ijtimoiy konstrukt hisoblanadi [1, 86].

ADABIYOTLAR TAHLILI

Mazkur tadqiqotda "millat" tushunchasini anglashga doir zamonaviy G'arbiy Yevropa ilmiy qarashlari asos sifatida olingan. Xususan, P. Berger va T. Lukman tomonidan ilgari surilgan ijtimoiy konstruktivizm nazariyasi jamiyat va ijtimoiy hodisalarni inson faoliyatining mahsuli sifatida talqin qilishga xizmat qiladi. Fredrik Barth etniklikni "ijtimoiy chegaralar" orqali izohlab, etnik guruhlarni madaniy mazmundan ko'ra ijtimoiy identifikatsiya jarayoni bilan bog'laydi. Ernest Gellner esa millatni sanoatlashuv, standartlashgan ta'lim tizimi va siyosiy institutlar bilan uzviy aloqada shakllangan hodisa sifatida ko'rsatadi. Benedict Andersonning "tasavvurdagi hamjamiyat" konsepsiyasi millatni ongda mavjud bo'lgan ramziy birlik sifatida izohlaydi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqot metodologiyasi sifatida tizimli yondashuv, tarixiy-qiyosiy tahlil hamda konseptual-analitik metodlardan foydalanildi. Ushbu metodlar orqali "millat" tushunchasining nazariy talqinlari, ularning shakllanish omillari va o'zaro farqli jihatlari aniqlashtirildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Konstruktivizm vakillariga ko'ra, etnik guruhlar – "tasavvurdagi hamjamiyat" yoki "sotsial konstruksiya"lar vakillarining etnikligi (etnik mansublik hissi) etnik guruhning a'zosi bo'lgan individning "yuragida" emas, balki "miyasida", ongida tug'iladi. Xorijiy falsafa fanida bu g'oya B. Anderson, P. Burde, F. Bart, E. Gellner va E. Xobsbaumning ishlarida ishlab chiqilgan va rivojlantirilgan. Jumladan, norvegiyalik olim Frederik Bart o'zining "*Etnik guruhlar va chegaralar*" asarida etniklikni tushunishning yangi konsepsiyasini taklif qiladi. Uning fikricha, barcha ichki etnik munosabatlar "madaniy bilish" asosida quriladi. Aynan shu "bilish"ga ko'ra inson o'zining etnik rolini bajaradi va o'zini etnik guruhning a'zosi sifatida qaraydi.

F. Bart etnik mansublikni "madaniy tafovutlarning ijtimoiy tuzilishi" sifatida qarab, bu muammo markaziga etnik chegaralarni qo'yadi hamda etnik mansublikni anglashdagi muhim jihat sifatida individning o'zini biror etnik guruhga mansub deb bilishini va bu holat boshqalar tomonidan ham tan olinishini ko'rsatadi. Shunga ko'ra, etniklik – ong (tafakkur) masalasi bo'lib, etnik guruhlariga a'zolik individning o'zini qanday namoyon etishiga bog'liq. Shu bois etniklikni aniqlashda etnosning madaniyati hal qiluvchi ahamiyatga ega emas, balki uning ayni vaqtdagi farqlari va guruhiiy chegaralari asosiy hisoblanadi [2, 22].

Kembridj universiteti professori Ernest Gellner esa, "amalda millat bor-yo'g'i davlat kabi tasodif, ular umumiy zaruriyat emas" [3, 124], deya ta'kidlaydi. Ko'rinib turibdiki, muallif milliy-ma'naviy omillarni millatning belgisi sifatida tan olmaydi. Uning uchun milliy qadriyatlar, urf-odatlar va millatning o'ziga xos xususiyatlari muhim ahamiyatga ega emas.

E. Gellner millatning shakllanishida hokimiyat, ta'lim va madaniyat omiliga ustuvorlik berib, "tilning standartlashuvi, milliy mehnat bozorining yaratilishi va majburiy ta'lim joriy etilishi" [4, 261] sekin-asta yagona millatni vujudga keltirgan, degan xulosaga keladi. Yuqorida aytilganlar asosida xulosa qilsak, konstruktivistik qarashlarga ko'ra, etniklik insonning ongida sub'ektiv tarzda shakllantiriladi va bu zamonamizning (yangi davrning) mahsuli hisoblanadi.

"Millat" tushunchasiga konstruktivistik yondashuv tarafdorlari millatni intellektual elita (olimlar, yozuvchilar, siyosatchilar, ideologlar) tomonidan nafaqat siyosiy pamfletlar (inglizcha *pamphlet* –

fuqaroviy yoki ijtimoiy-siyosiy mazmundagi dolzarb publitsistik asar), balki badiiy va ilmiy asarlar shaklida namoyon bo'luvchi milliy loyiha asosida ma'lum maqsadlarda konstruksiya qilingan sun'iy birlashma sifatida qaraydilar. Ularning fikricha, milliylik millatni uyg'otmaydi, balki yo'q joyda yangi millatni yaratadi. Davlatning faol siyosiy chegarasi esa milliy loyihaning ham chegarasi hisoblanib, bunday millatning yaratilishida ishtirok etayotgan aholining etnik jihatdan farqlanishi umuman ahamiyatga ega bo'lmaydi.

Yangi davrgacha, ya'ni sanoatlashish davrigacha mavjud bo'lgan etnoslar bilan zamonaviy millatlar o'rtasidagi to'g'ridan-to'g'ri vorisiylik konstruktivistlar tomonidan inkor qilinadi. Ularning fikricha, millat – jamiyatning sanoatlashishi (industrializatsiya), umumiy standartlashgan ta'lim tizimining joriy qilinishi, fan va texnika taraqqiyoti, kitob nashri hamda ommaviy kommunikatsiya va axborot vositalari rivojlanishi davri mahsuli hisoblanadi. An'anaviy jamiyatda esa identlikning (aynanlashtirishning) boshqa ko'plab shakllari (toifaviy, diniy va boshqalar) mavjud bo'lgani bois, sanoatlashishgacha bo'lgan davrda etnik identlik muhim rol o'ynamagan.

Britaniyalik sotsiolog Benedikt Anderson tomonidan "millat" tushunchasining siyosiy jihatlariga alohida e'tibor qaratilgan. U shunday yozadi: "Men antropologik nuqtai nazardan 'millat' tushunchasi – siyosiy umumiylikni tasavvur qilishdan iborat deb bilaman". Uningcha, "millat" bu – tasavvurdagi siyosiy birlik, "tasavvurdagi hamjamiyat" (*imagined communities*)dir. Zero, eng kichik millat vakillari ham o'z millatdoshlarining ko'pchiligini hech qachon bilmaydilar, ular bilan uchrashmaydilar, hatto ular haqida eshitmaydilar ham, biroq ularning ongida umumiylik haqidagi tasavvur saqlanib qoladi [5, 47]. Benedikt Anderson fikriga ko'ra, millat uning a'zolari bir-birini shaxsan bilganligi tufayli emas, balki ularning qon-qarindoshlik haqidagi tasavvurlari kuchi sababli mavjud bo'ladi. Uningcha, aslida faqat ratsional fikrlaydigan individlar mavjud bo'lib, ular o'zlarini boshqalar bilan emas, balki muayyan obraz bilan aynanlashtirganliklari uchun "millat" ularning miyasida, "tasavvur"ida yashaydi.

Nemis sotsiologi Robert Michels, "millat shuning uchun millatki, uning vakillari millatning mavjudligiga ishonadi" [6, 35], degan fikrni bildiradi. Mazkur etnopsixologik yondashuvda millatning substansional, ob'ektiv belgilari e'tirof etilmaydi. Millat kishilarning "men mazkur millatga mansubman", degan sub'ektiv fikridan kelib chiqadi, xolos. Amerikalik olimlar V. Sulsbax, M. Kon va ingliz olimi Dj. Koulning ta'kidlashlaricha, "millat" tushunchasida hech bir ob'ektiv xususiyat mavjud emas. Masalan, M. Konning fikriga ko'ra, millat faol kishilarning "millat yaratish qarori"ga ko'ra shakllantiriladi. "Millat, – deb yozadi AQShlik sotsiolog V. Sulsbax, – o'zini boshqa millatlardan farqlashga va buning natijasida o'z davlatiga ega bo'lishga intiluvchi kishilar guruhidir".

XULOSA

Konstruktiv yondashuv AQSh, Kanada va Australia kabi emigrantlar mamlakatlarida mustahkam mavqega ega bo'lib, bunda etniklik va millatga mansublik ongning o'ziga xos holati, individning o'zini o'zi muayyan hamjamiyat bilan aynanlashtirishi sifatida qaraladi.

Xulosa sifatida aytish mumkinki, yangi industrial jamiyatga, ya'ni kapitalistik tuzumga o'tish davridagi tub ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarda mahalliy etnik guruhlar ishtirokining sezilmaganligi yoki mahalliy etnik guruhlarining umuman bo'lmaganligi (Native Americans va Australian Aboriginal peoplesni hisobga olmaganda) zamonaviy G'arb dunyosida konstruktiv yondashuvning ommalashishiga asosiy omil bo'lib xizmat qilgan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Бергер П., Лукман Т. Социальное конструирование реальности: трактат по социологии знания. – Москва: Медиум, 1995. – С. 86.
2. Барт Ф. Введение // Этнические группы и социальные границы: социальная организация культурных различий / под ред. Ф. Барта. – Москва: Новое издательство, 2006. – С. 22.
3. Геллнер Э. Нации и национализм // Вопросы философии. – 1989. – № 7. – С. 124.
4. Геллнер Э. Нации и национализм. – Москва: Прогресс, 1991. – С. 10, 108, 261.
5. Anderson B. *Imagined Communities*. – London; New York: Verso, 1999. – P. 6; Андерсон Б. Воображаемые сообщества. Размышления об истоках и распространении национализма / пер. с англ. В. Николаева. – Москва: Кучково поле, 2016. – С. 47.
6. Musayev O. O'zbekistonda millatlararo munosabatlar rivoji. – Toshkent: Istiqloq nuri, 2016. – B. 35.